

## ONA TILI VA ADABIYOT FANLARI RIVOJINI TA`MINLANISHINING USTVOR VAZIFALARI VA FANDAGI YUTUQLAR

**Shodmonova Sayyora Rahmonaliyevna**

Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumani 49-sonli mактабning

Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Dars jarayonlariga o'quvchilarni qiziqtira olish maqsadida ta'limiylar o'yinlar va boshqotirmalarni mavzuga mos tanlab olish, mashg'ulotlar jarayonida har bir o'quvchi bilan yakka yoki guruhlarda ishlash dars samaradorligini shirazi.

**Kalit so'zlar:** Taraqqiyot, ilm, ma'rifat, umumbashariy, ilmiy-nazariy, ta'limiylar, texnologiya, istiqbol.

*“Bilimli biladi bilim hurmatin,  
Bilimsiz ne bilgay bilim qiymatin”  
(Yusuf Xos Xojib)*

Har qaysi xalqning ona tili va adabiyoti uning milliy ruhi va o`zligining madaniy-ma`rifiy olami, milliy g`oyasining asosi hisoblanadi. Hozirgi tez o`zgaryotgan glaballashuv davrida o`zbek tili va adabiyotining o`ziga xos betakror xususiyatlari, tarixiy taraqqiyoti, uning bugungi holati va istiqboli bilan bog`liq masalalarni chuqur o`rganish, bu borada olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlari samaradorligini kuchaytirish, ta`lim-tarbiya tizimining barcha bo`g`inlarida o`zbek tili va adabiyot fanini o`qitishning hamda ushbu soha bo`yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlashning sifatini tubdan oshirish davr talabi. Bugungi kunda ona tili va adabiyotimiz rivoji, uning o`qitilishi bilan bog`liq vazifalar quyidagilardan iborat:

• *O`zbek tili va adabiyotini, uning o`ziga xos xususiyatlari, ilmiy-nazariy, falsafiy-estetik asoslarini, zamonaviy ta`lim texnologiyalarini chuqur o`zlashtirgan pedagoglarni tayyorlash;*

• *Ilmiy, badiiy va boshqa sohalardagi adabiyotlarni o`zbek tilidan ingliz va boshqa horijiy tillarga tarjima qilishni biladigan o`quvchilarni tayyorlash;*

• *O`quvchi yoshlarni, o`zbek tili va adabiyotining boy imkoniyatlaridan foydalanib, Vatanga muhabbat, do`stga sadoqat, umumbashariy qadryatlarga hurmat ruhuda, keng dunyoqarashga ega bo`lgan va mustaqil fikrlaydigan yetuk insonlarni tarbiyalash;*

Dars davomida zamonaviy ta`lim texnologiyalari va usullardan foydalanim dars berish talab etiladi.

Hozirgi zamon ta`limining asosiy maqsadlaridan biri o`quvchi shaxsini rivojlantirishdir. Rivojlantiruvchi ta`lim texnologiyalar qo`llanganda, o`quvchilar



qiziqishini ortishiga, bilimlarni ko`nikmaga aylanishiga, bilim sifat – samaradorligining oshishiga sabab bo`lmoqda.

Texnologiyani qo`llanishi–amaliy mashg`ulotlar, seminar, suhbat-munozara shaklidagi darslarda yakka tartibda, kichik guruh va jamoa shaklida foydalanishi mumkin.

Mashg`ulotda foydalaniladigan vositalar. O`quvchi dars jarayonida mustaqil o`qishlari, o`rganishlari va o`zlashtirib olishlari uchun mo`ljallangan tarqatma materiallar (o`tilgan mavzu yoki mavzu bo`yicha qisqa matnlar, suratlar) Mashg`ulotlarni o`tkazish tartibi:


Ushbu texnologiya bir necha bosqichda o`tkaziladi:

- O`quvchilar kichik guruhlarga ajratiladi;
- O`quvchilar darsning maqsadi va tartibi bilan tanishtiriladi;
- O`quvchilarga mustaqil o`rganish uchun mavzu bo`yicha matnlar tarqatiladi;
- Berilgan matnlar o`quvchilar tomonidan yakka tartibda mustaqil o`rganiladi;
- Guruhlar tashkillanib, hamkorlikda ishlash va bir-birini hurmat qilish g`oyalari ham singdiriladi.

### *Ta`limiy o`yinlardan namunalar keltiramiz:*

#### **“Zinama-zina”**

Sinf o`quvchilari ikki guruhga ajratiladi. O`tilgan mavzular bo`yicha savollar tuziladi. Qaysi guruh savollarga javob bersa zinalardan tepaga ko`tariladi. (ona tili va adabiyot darslarida foydalanish mumkin)



#### **“Marra sari olg`a”**

Yozuv taxtasiga ushbu ko`rgazma ilinadi. Marraga borish uchun ikki yo`l bor. Birinchi yo`lda savollar oson, lekin yo`l uzoq. Ikkinci yo`lda savollar qiyin, lekin yo`l yaqin. Qaysi o`quvchi marraga tez borsa oldindan tayyorlab qo`yilgan rag`batni oladi.



- 1."Vaqt" she'rining muallifi kim?
- 2.Adabiyot o'z ichiga qaysi turlarni oladi?
- 3.G'azal qanday turlarga bo'lindi.



### “Fan kabeniti”

Olmoshlarning turi qatnashgan gaplar beriladi. Qaysi fanga tegishli bo`lsa o`sha fanga gapni to`g`ri biriktiriladi.

	<b>Hamma saflansin.</b>	Jismoniy tarbiya
	<b>Yer o`z o`qi atrofida aylanadi</b>	Geografiya
	<b>Har kim bepul bilim olish huquqiga ega.</b>	Xuquq
	<b>To`rtburchakning nechta burchagi bor</b>	Geometriya
	<b>Kimning qilichiga “Kuch adolatda” deb yozilgan?</b>	Tarix

### “Mening fikrim yagona emas”

O`quvchilarni adabiyot darslarida o`z fikr-mulohazalarini yozma va og`zaki bayon etishga o`rgatish maqsadida quyidagi she`riy parchalarni kichik guruhlarga tarqatamiz.

#### 1-guruh

*Bilim boyligiga to`ymaydi odam,  
Kamaymas boshqaga qancha bersa ham.  
Olamda bilimdir ganji bebaho,  
Kim bilim egasi – o`sha podsho.*

#### 2-guruh

*Harchand o`qibsan – bilimdonsan,  
Agar amal qilmading, nodonsan.*



*Ustiga kitob ortilgan eshak, -  
Na olim va na donodir beshak.*

### **3-guruh**

*Ilm oqar suvgaga kema bo`ladi,  
Kemada ilmli suza biladi.  
Ilmga oshno bo`lganining zamon,  
Kemasiz ham suvdan o`tasan oson.*

Ushbu parchalarda ilgari surilgan g`oyalarni guruh vakillari izohlab, sharhlab berishadi.

Sinf o`quvchilarini kichik guruhlarga bo`lamiz. Har bir guruh uchun quyidagi so`zlarni tarqataman, o`quvchilar berilgan so`zlarni ma`nolarini topish musobaqasini o`tkazishadi. Buni uchun 9-sinfda adabiyot fanidan “Algomish” dostonidagi so`zlardan foydalanamiz.

**Burumidan** – soch tutami,  
**Poyim** – fahm, ma`no,  
**Chuvda** – bo`yin sirtidagi yo`g`on tomir,  
**Quvonchiq** - tutqanoq,  
**Qutbi zamon** – zamonasining avliyosi,  
**Kulaband** – yechilmaydigan qilib boylangan,  
**Shopirib** – katta qadam tashlab,  
**Ang** – sodda bo`sh.

### **“Eslab qol”**

Abdulla Qahhorning 7-sinfda “O`g`ri” hikoyasini o`tib matn ustida ishlanganda quyidagi usuldan foydalanamiz. O`quvchilar kitoblarini olib qo`yadi va hikoyada ho`kiz topilishi uchun ketgan barcha poralarni sinf daftariga yozadi. Qaysi o`quvchining eslab qolish qobiliyati kuchli ekanligini aniqlaymiz.

*Yarim qop jiyyda, uch yelpish tovoq jo`xori, ikki kalava ip, uchta tovuq, yuzta tuxum, bitta kulangir, bitta farangi tovuq, uch so`m pul.*

Abdulla Qahhorning “O`g`ri” hikoyasida qaysi maqollardan foydalanilgan?

*Tekinga mushuk oftobga chiqmaydi.*



*Quruq qoshiq og`iz yirtar.*

*Berganga bitta ham ko`p, olganga o`nta ham oz.*

*Uni begum deguncha, kishining beli sinar.*

*O`ynashmagin arbob bilan, seni urar har bob bilan.*

O`quvchilarning badiiy asarlarni o`qishi, matnlarga qarab qaysi hikoyadan olinganini darhol anglashi uchun quyidagi musobaqa usulidan foydalanamiz. Bir tarafga darsliklardagi hikoyalardan parcha keltiramiz, bir tarafga hikoyalar nomini yozamiz. O`quvchilar hikoyalarning to`g`ri nomlarini birlashtirishadi.

... *Kasalxonaga yaqinda tushgan Mirrahimov, jikkakkina kishi, o`ziga juda ham katta ko`k xalatga burkanib, yengchadan boshini chiqarib turgan sichqondek derazadan ko`chaga qarab o`tirgan edi... “Ming bir jon”*

... *Mulla Norqo`zi har kuni bozordan qaytib samovorga chiqadi va ko`ngli tortgan odamlarni atrofiga to`plab, yarim kechagacha shariyatdan yuz o`girgan xotinlar to`g`risida shunday vaysab o`tiradi... “Mayiz yemagan xotin”*

... *Yaqin ikki haftadan beri ko`z ochirmayotgan kuzak shamoli yaydoq daraxtlar shoxida chiyillaydi, h`uvillaydi, tomlarda vishillaydi, yopiq eshik va darchalarga bosh urib uf tortadi... “Dahshat”*

**Ona tili darslarida ayrim usullardan foydalanib ko`ramiz.**

**“So`z sehri” usuli.**

Bu usuldan o`tilgan mavzuni so`rashda yoki yangi mavzuni mustahkamlashda foydalanamiz. Masalan: 6-sinfda “Fe`l” mavzusini o`rganishda Zulfiyaning “Xalqimga aytar so`zlarim” she`ridan foydalanamiz. Buning uchun she`r monitorda ko`rsatiladi. O`quvchilar she`rdagi fe`l va uning shakllarini aniqlashadi.

O`zing tashna etding, o`zing suv tutding,

Qalbimdagi sahrom, daryomsan, xalqim.

Seni seva-seva men boyib ketdim,

Dunyo ichra topgan, dunyomsan xalqim.

Yoki quyidagi hadislardan havola qilamiz va undagi qo`shimchalarni aniqlaymiz.

“Ilm egallang! Ilm sahroda do`sst, hayot yo`llarida tayanch, yolg`izlik damlarida yo`ldosh, baxtiyor daqiqalarda rahbar, qayg`uli onlarda madadkor, odamlar orasida zeb-u ziynat, dushmanlarga qarshi kurashda quroldir”

**“So`z ko`rki maqol” usuli.**

Bunda o`qituvchi yoki iqtidorli o`quvchilardan biri maqollar topib keladi o`quvchilar davomini topadi, topolmagan guruh maqollarni sharhlaydi.



Ola qarg`a qag` etdi, *o`z vaqtini chog` etdi.*  
Daryo suvin bahor toshirar, *odam qadrin mehnat oshirar.*  
Yaxshi otga bir qamchi, *yomon otga ming qamchi.*

**1-guruhgä:**

**Gap.** gapdon, gaplash, gapir, gapni, sergap...  
**Aql,** aqli, aqlsiz, aqlga, aqlni, beaql...

**2-guruh:**

**Xabar,** xabarsiz, xabardor, bexabar, xabarni...  
**Ilm,** ilmsiz, ilmli, ilmni, ilmdan...

**3-guruh:**

**Ulug`**, ulug`vor, ulug`lik, ulug`la...  
**Ish,** ishchi, ishla, ishsiz, ishchan, ishli...

Faollikka undovchi, mavzuga qiziqtiruvchi mazkur usullardan dars mavzusiga mosini tanlab qo`llash maqsadga muvofiq.

O`zing tashna etding, o`zing suv tutding,  
Qalbimdagи sahrom, daryomsan, xalqim.  
Seni seva-seva men boyib ketdim,  
Dunyo ichra topgan, dunyomsan xalqim.

Yoki quyidagi hadislardan havola qilamiz va undagi qo`shimchalarni aniqlaymiz.

“Ilm egallang! Ilm sahroda do`sst, hayot yo`llarida tayanch, yolg`izlik damlarida yo`ldosh, baxtiyor daqiqalarda rahbar, qayg`uli onlarda madadkor, odamlar orasida zeb-u ziynat, dushmanlarga qarshi kurashda quroldir”

Faollikka undovchi, mavzuga qiziqtiruvchi mazkur usullardan dars mavzusiga mosini tanlab qo`llash maqsadga muvofiq.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Adabiyot 9-sinf darsligi Toshkent 2019
2. Adabiyot xrestomatikasi Toshkent "O'qituvchi" 1990
3. Sitora Qobilova Ona tili mukammal qo'llanma Toshkent "Yangi kitob" 2019.

